

TALABALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARI

Urinova Sabina Shuxrat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Musiqiy ta’limi” kafedrası o’qituvchisi

Email: sabinaurinoval26@gmail.com

Tel: +998 99 331 33 35

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida talabalarda kreativlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati, zamonaviy ta’lim talablari hamda innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarining ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi faol, interaktiv va muammoli ta’lim metodlarining mazmuni ochib berilgan. Maqolada kreativlikni rivojlantirish jarayonida o’qituvchining roli, ta’lim muhiti va metodik ta’minotning ahamiyati asoslab beriladi. Keltirilgan metodlar talabalarining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar. kreativlik, kreativ fikrlash, ijodiy faoliyat, innovatsion ta’lim, interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, pedagogik yondashuv, ta’lim jarayoni, talaba kompetensiyasi

Pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda metodik ta’minot muhim o’rin egallaydi. Chunki metodik ta’minot — o’qitish jarayonini tizimli, izchil va maqsadga yo’naltirilgan holda tashkil etish imkonini beruvchi o’quv-metodik majmuadir. Musiqa ta’limida metodik ta’minotning to’g’ri ishlab chiqilishi o’quv jarayonining nafaqat mazmunini, balki talabaning ijodiy faoliyatini ham faollashtiradi

Ta’lim jarayonida talabalarining kreativ ko’nikmalarini rivojlantirishda turli metodlardan foydalanish bo’lajak musiqa o’qituvchisining pedagogik faoliyatida darslarning noana’naviy, yuqori samarali bo’lishini ta’minlaydi. Bu orqali o’rta ta’limda tahsil olayotgan o’quvchilarda ham dars mazmunini yaxshiroq anglash, musiqiy faoliyat turlarini o’zlashtirishga kreativ yondashuvni shakllantirib boradi. Bizga ma’lumki, “didaktika grekcha so’z bo’lib, “didasko”, ya’ni “o’qitish”, “o’rgatish” ma’nolarini bildiradi. Didaktika pedagogikaning “nimaga o’qitish”, “nimani o’qitish” va “qanday o’qitish” kabi savollariga javob izlaydi”¹⁷ Shunday ekan, ayni “qanday o’qitish” tamoyili dars jarayonlariga tadbiiq etilayotgan usul va uslublarning qay darajada natija ko’rsatishi uning ertangi samarasidir.

¹⁷ Ibragimov X. Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – B. 198.

Darslar an'anaviy yoki noan'anaviy shaklda tashkil etilishi mumkin. An'anaviy darslarda aniq tushunchalar yetkazilib, o'qituvchi tomonidan sinf muhitini nazorat qilib turish osonroq va vaqtdan unumli foydalanish mumkin. Noan'anaviy shakldagi darslarda mazvu yaxshi o'zlashtiriladi, muloqotga kirishish ham yuqori dajada bo'lib, talabalarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kamchiliklari esa, an'anaviy darslarda o'qituvchi to'la nazorat o'rnatishi natijasida o'quvchilar sustroq bo'lishi, muloqot ko'nikmalarining ham rivojlanmasligidir. Noan'anaviy darslarda nazorat imkonining pastligi, vaqt ko'p talab etilishi kamchilik sifatida namoyon bo'ladi.

Noan'anaviy dars o'z ichiga "ma'ruza, fakultativ, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiya, bahs-munozara, davra stoli, viktorina, matbuot konferensiyasi..."¹⁸ kabilarni qamrab olar ekan, oliy ta'lim muassasasida ham darslar asosan shu shakllarda tashkillashtiriladi: ma'ruza seminar, laboratoriya mashqlari, amaliy mashg'ulotlar, ochiq ma'ruzalarda ishtirok etish, ma'ruza tayyorlash, muhokama kabilar. Ma'ruzada fan og'zaki tarzda talabalarga yetkaziladi. Bu orqali talaba fan mazmun-mohiyatini tushunib boradi. Seminar mashg'ulotlarida ma'ruzada o'zlashtirilgan bilimlar chuqurroq o'rganilsa, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar ularni asosan amaliyotga qo'llashga qaratiladi.

Didaktik metodistlar ta'lim metodlarini bilishga qaratilgan, o'qituvchi va o'quvchini bog'lovchi vosita sifatida qarar ekan, usiz ta'lim maqsadi, vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblashadi. "Metod termini yunonchadan tarjima qilinganda ma'lum maqsadga erishish yo'li, faoliyat usuli ma'nolarini anglatadi. Ta'lim metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat usullari tushuniladi"¹⁹

Talabalarni musiqiy-nazariy fanlarga o'qitishda metodlarni fan maqsadi, vazifasi, mavzudan kelib chiqqan holda darslarda qo'llash kerak. Kasbiy kompetensiya va kreativlikni oshirib borishda ham, ayni shu jihatlardan tashqari, qo'llanilayotgan metodlarning bo'lajak musiqa fani o'qituvchilarining fan bo'yicha qobiliyatlarga va ijodkorona yondashuvga ega bo'lishga asos bo'ladi. Og'zaki metodlar suhbat, hikoya, ma'ruza shakllarda olib borilib, o'qituvchi tushuntirishi va talaba tinglashi bilan amalga oshirilib, savol-javob ham qo'llaniladi. "O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari – o'quv material mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir"²⁰ Induktiv metodda xususiy faktlarni avval o'zlashtirib, keyin xulosalar vositasida materialni umumlashtirib o'rganadilar. Deduktiv metod – avval umumiy qoidalar aytib, undan so'ng xususiy qoidalarni keltirib chiqarishdir.

¹⁸ Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro'ziyeva D.N., Usmonboyeva M.H. Pedagogika. – Toshkent: TDP. 2016. – B. 107.

¹⁹ Asqarova M.O., Xayitboyev M., Nishonov M.S. Pedagogika. – Toshkent: Talqin, 2008. – B. 81.

²⁰ Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika (umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – B. 104.

Induktiv metod foydaliroq deb sanalsada, unga ko'p vaqt ketadi, deduktiv metod esa tez o'zlashtirishga yordam beradi va fikrlash tezroq rivojlanadi.

Ko'rgazmali metodlarda asosan talabalarning eshitish va ko'rishni uyg'unlashtirib qabul qilib o'rganish samaradorligi rivojlanadi. "Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchilarni undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishdan iborat"²¹ Amaliy metodlarda yozma mashqlar, laboratoriya, dastur tuzish, masalalarni yechish, topshiriqlar bajarish kabilardan foydalaniladi. Bu metodlarda nazariy bilimlar amaliy tarzda tekshirilib, faoliyatga tadbiiq etiladi. Bunday metodlardan tashqari ta'lim jarayonlarida "muammoli izlanish metodlari"²² dan foydalanilib, o'rganuvchilarni fikrlashga, ijodkorona yondashuvga, fanga yanada qiziqish ortishiga o'rgatadi.

Muammoli izlanish turidagi metodlar talabani ijodkorroq bo'lishga, tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. "Muammoli ta'lim deganda o'quv materialini o'quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rganish tushuniladi"²³.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratib darslarni tashkil etishda vositalar ham muhim rol o'ynaydi. Bunda metodik ishlanmalar, ma'ruza matnlari, topshiriq, tarqatma materiallar, multemediya vositalari, metodik tavsiya, audiovizual vositalar, mashqlardan foydalanish mumkin. Darslarning har qanday ko'rinishini yuqoridagi tarzda tashkillashtirish talabalarda yetarli bilim, ko'nikma va malakalar bo'lishini ta'minlab, bu fanlar vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ ko'nikmalarini rivojlantirib borishda dars jarayonlarida bir necha interfaol metodlardan foydalanish, bo'lajak pedagoglarni kelgusi faoliyatda darslarni faoliyat turlari bo'yicha samarali tashkil etishlarida xizmat qiladi.

Talaba oliy ta'limda o'qish jarayonida turli xil fanlar, o'quv mashg'ulotlari turlari, dars shakllari, metodlari bilan tanishib borar ekan, kelgusi pedagogik faoliyatda ham olgan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashga, o'zi uchun chiqarilgan xulosalar bilan darslarga ijodiy yondashishga o'z-o'zidan harakat qiladi. Umumiy o'rta ta'limning musiqa madaniyati darslarida har bir o'quvchi va darsning o'ziga xosligini inobatga olib, kreativ bo'lishga intiladi.

²¹ Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – B. 226.

²² Asqarova M.O., Xayitboyev M., Nishonov M.S., Pedagogika. – Toshkent: Talqin, 2008. – B. 84.

²³ Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 207.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san't sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112-sonli prezident qarori. 02.02.2022.
2. Asqarova M.O'. Xayitboyev M. Nishonov M.S. Pedagogika. "Talqin". Toshkent. 2008-yil.
3. Axrorova M.M. (2024) "Musika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi rivojida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ahamiyati". Ilmiy axborotnomasi. Scientific Journal. №6/1 (148) ISSN:2181-1296. UDK:78:681.14.153-158. www.axborotnoma.uz
4. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М.: Просвещение, 1968.
5. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – № 5
6. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности // Е.П. Ильин. – СПб.: Питер, 2011.
7. Макаренко А.С. Педагогические сочинения: В 8 т. М.: Прогресс, 1983–1986
8. Маркова А.К. Психология профессионализма. М.,1996.
9. Mavlonova R, Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009-yil.
10. Сластенин В.А. Педагогика: инновационная деятельность / В.А. Сластенин, Л.С. Подымова. – М.: НЧП «Издательство Магистр», 1997.
11. Urinova S.Sh. Music theoretical sciences in developing creativity of future music teachers. International bulletin of medical sciences and clinical research. UIF = 8.2 | SJIF = 5.94 13.04.2023